



UDK:30.428

*Gulbahor XUDAYBERGENOVA,*  
*Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail:shixnazarmadiyorov@gmail.com*

*Dots., Q.M.Olloyorov taqrizi asosida*

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI “ISH”, “MEHNAT” VA “VAQT” KONSEPTLARINI IFODALOVCHI  
PAREMYALARNING LINGVOMADANIY VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

Аннотация

Ushbu maqolada ish, mehnat va vaqt konseptlarini ifodalovchi paremyalarning o‘zaro lingvistik bog‘liqligi chog‘ishtirma lingvomadaniy tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi paremyalar asosida amalga oshirilgan tadqiqotda, ushbu leksik-madaniy birliklarning semantik va pragmatik jihatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada paremyalarning milliy dunyoqarash va lingvokultural kontekstda ish va vaqt tushunchalarini qanday aks ettirishi hamda ularning til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ish va vaqtga bo‘lgan yondoshuvning madaniyatga bog‘liq o‘ziga xosligini ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** Paremya, ish, vaqt, mehnat, konsept, semantika, milliy dunyoqarash, madaniyat, ijtimoiy qadriyat.

**ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ И ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПАРЕМИЙ, ВЫРАЖАЮЩИХ  
КОНЦЕПТЫ «РАБОТА», «ТРУД» И «ВРЕМЯ» В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ**

Аннотация

В данной статье проводится сопоставительный лингвокультурный анализ взаимосвязи паремий, выражающих концепты работы, труда и времени. На основе паремий узбекского и английского языков в исследовании рассматриваются семантические и прагматические аспекты данных лексико-культурных единиц. В статье анализируется, каким образом паремии в национально-мировоззренческом и лингвокультурном контексте отражают представления о работе и времени, а также их взаимосвязь между языком и культурой. Результаты исследования раскрывают культурно обусловленную специфику отношения к работе и времени.

**Ключевые слова:** Паремия, работа, время, труд, концепт, семантика, национальное мировоззрение, культура, социальные ценности.

**LINGUOCULTURAL AND LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF PAROEMIAS EXPRESSING THE CONCEPTS  
OF “WORK,” “LABOR,” AND “TIME” IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES**

Annotation

This article presents a comparative linguocultural analysis of the interrelation of paroemias expressing the concepts of work, labor, and time. Based on paroemias in the Uzbek and English languages, the study examines the semantic and pragmatic aspects of these lexical and cultural units. The article analyzes how paroemias reflect the notions of work and time within the framework of national worldview and linguocultural context, as well as their role in revealing the interaction between language and culture. The research findings demonstrate the culturally conditioned specificity of attitudes toward work and time.

**Key words:** Paroemia, work, time, labor, concept, semantics, national worldview, culture, social values.

**Kirish.** Ish, mehnat va vaqt insoniyat hayotining ajralmas qismidir. Turli tillarda shakllangan paremyalar orqali ushbu tushunchalar o‘ziga xos madaniy va lingvistik ifodalarni topadi. Paremyalar — xalq mulki bo‘lib, ular odat, tajriba va qadriyatlarni qisqa, aforizmatik shaklda etkazadi. Shu bois, ish, mehnat va vaqtga doir paremyalarning lingvistik va madaniy tahlili til va madaniyat o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni anglashda muhim omil hisoblanadi. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek paremyalarining taqqoslanishi orqali ish, mehnat va vaqt konseptlarining lingvokultural tafovutlari yoritiladi, ular orasidagi semantik va pragmatik xususiyatlar tahlil qilinadi.

Ish, mehnat va vaqt konseptlarini ifodalovchi paremyalarning lingvosemantik va lingvopragmatik tadqiqotlari keng qamrovli tarzda olib borilgan. Apresyan (1995) "Metaphor, Metonymy and Cognitive Modeling" asarida metafora va metonimiyaning kognitiv modellashtirishda roli yoritilgan bo‘lib, bu konseptlar til va madaniyat o‘rtasida chuqur aloqalar o‘rnatishda muhim ekanligini ko‘rsatadi. Lakoff va Johnson (1980) "Metaphors We Live By" esa metaforalarning faqat adabiy emas, balki

kundalik til va tafakkurning poydevori ekanligini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, metaforalar inson tafakkurining asosiy vositasi bo‘lib, ish va vaqtga oid paremyalarda ham keng ifodalanadi.

Fillmor (semantik va pragmatik tadqiqotlarda ko‘p iqtibos keltiriladi) o‘zining "Frames and the Semantics of Understanding" ishlanmasi orqali ma’lumotlar qamrovini kengaytirib, framelar nazariyasi orqali lingvistik birliklarning kontekstual tushunilishi muhimligini urg‘ulaydi. Wierzbicka (1996) esa "Semantic Primitives" asarida semantik elementlarning universal jihatlari o‘rganib, milliy lingvokultural tafovutlarning asosini ochib beradi.

Eko (1979) "The Role of the Reader" kitobida madaniyat va til o‘rtasidagi interaktiv munosabatlarga e’tibor qaratib, paremyalar orqali madaniy axborotlarning o‘quvchi tomonidan qanday qabul qilinishini o‘rganishga asos yaratadi. Zuckermann (2003) esa "Language Contact and Lexical Enrichment in Israeli Hebrew" asarida til kontaktlari va leksik boyish jarayonlarini ko‘rib chiqib, paremyalarning til o‘zgarishlaridagi o‘rni haqida ma’lumot beradi.

Tomas (1995) "Cross-Cultural Pragmatics" kitobida madaniyatlararo pragmatikaning nazariy asoslari berilgan bo'lib, tilshunoslik va madaniyat tadqiqotlarida ko'p qo'llaniladi. Crystal (2010) "The Cambridge Encyclopedia of Language" esa umuminsoniy tilshunoslik bilimlarini o'zida jamlab, lingvistik tadqiqotlarga keng kontekst beradi.

Milliy madaniyatga oid tahlillarda Karimova (2019) "Uzbek Proverbs as a Reflection of National Culture" o'zbek maqol va matallarining milliy ma'naviyatni aks ettirishdagi ahamiyatini yoritadi. Nabiev (2021) esa "Work and Time in Uzbek Paremiology" asarida ish va vaqt kontseptlarini o'zbek tilidagi paremyalar nuqtai nazaridan chuqur tahlil qiladi.

Qadimgi yunon dramaturgi Sofokl(miloddan avvalgi taxminan 497/496–406/405 yillar)ning insoniylik, axloq va ijtimoiy masalalarni chuqur yoritgan tragediyalari qadimgi Yunonistonning madaniy va siyosiy hayotini aks ettirgan. faol ishtirok etgan, mashhur "Shoh Edip" va "Antigona" kabi asarlari bilan adabiyot va teatr rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning qalamiga mansub mashhur aforizm "Without labour, nothing prospers." (Mehnatsiz hech narsada zafar yo'q) degan fikrini lingvopragmatik nuqtai nazardan tahlil qilindanda, bu aforizm madaniy-kognitiv kod bo'lib, mehnat va natija o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka urg'u beradi. Kommunikativ kontekstda u tinglovchi yoki o'quvchida sabab-oqibat munosabatini belgilar orqali keltirib chiqaradi, bunda "labour" va "prospers" so'zlari mehnatning faoliyatdagi zaruriyligi va muvaffaqiyatning natijasi sifatidagi tushunchalarni ifodalaydi. Aforizمنىng qat'iy va umumiy ta'kid uslubi ijtimoiy qadriyatlarini mustahkamlaydi, shuningdek, turli madaniyatlarda mehnatga beriladigan ahamiyatni aks ettiradi.

Shunday qilib, Sophoclesning ushbu iqtibosi lingvopragmatik jihatdan mehnat va muvaffaqiyat munosabatini manifestlashtiruvchi, madaniyatdagi mehnatga oid stereotip va qadriyatlarining til orqali ifodasi sifatida o'rganilishi muhimdir. Bu aforizm madaniy-semantik va pragmatik qatlamlarda o'rganilganda ijtimoiy kommunikatsiyaning mehnat mavzusiga oid asosiy nuqtai nazarlarini yoritadi. Quyidagi epigraflar ingliz tilida bo'lib, ularning o'zbek milliy dunyoqarashiga oid ishga munosabat bilan lingvomadaniy va lingvopragmatik tahlili:

O'zbek madaniyatida vaqt va kelajak tushunchasi juda qadrlanadi. Ingliz tilida ish ifodasi vaqt bilan bog'liq kontsept sifatida aniq matematik va universal vaqt o'lchovini bildirsada, o'zbek mentalitetida vaqt ko'proq taqdir, taqsim etilgan hayot imkoniyati sifatida qabul qilinadi. Bu epigrafda kelajakning boshqalardan farqlanmasligi, har kimga bir xil va doimiy ravishda yetib kelishi ta'kidlanib, tejash, samarali foydalanish haqida ogohlantiradi. O'zbek tilidagi tarjimada ham vaqtga nisbatan umumiy, lekin mas'uliyat talqini mavjud bo'ladi. Masalan: "The future is something which everyone reaches at the rate of sixty minutes an hour, whatever he does, whoever he is." (C.S.Levis) ya'ni "Kelajak har bir odamga soatiga oltmish daqiqqa tezlikda yetib keladi, u nima qilmasin, kim bo'lmasin."

O'zbek madaniyatida ishlash qadrlanadi, lekin bo'sh vaqt va dangasalik haqida turli nuqtai nazarlar mavjud. Xususan ingliz paremyalarida uchraydigan "ko'ngilga yaqin dangasalik" tushunchasi o'zbek dunyoqarashida ko'proq mehnat va dam olish muvozanati, ruhiy va jismoniy tiklanish ma'nosida tushuniladi. Xullas ikkala madaniyatda ham ishning doimiy emasligini, bekorchilik, dangasalik yoki dam olishning ham zarurligi tasdiqlanadi, bu o'zbek pragmatik fikrida muvozanatni aks ettiradi. "Work is not always required... there is such a thing as sacred idleness." (G. MacDonald) ya'ni Ish har doim ham zarur emas... ba'zan bizga yoqadigan dangasalik ham bo'lib turadi).

O'zbek tilida ish va mehnat konseptlari juda kuchli hurmat qilinadi. "Qattiq mehnatning o'rnini bosadigan hech narsa yo'q" degan gap mustahkam iroda, matonat va mehnatsevarlik qadriyatlarini ifodalaydi. Bu epigraf o'zbek madaniyatidagi mehnat kontseptsiyasining o'zagi hisoblanadi va ishga munosabatning mustahkamligiga ta'qiq qo'yadi. Masalan: "There is no substitute for hard work." (T. Edison) Darhaqiqat farovon turmush va jamiyat ravnaqi uchun inson va butun jamiyatning chin dildan samimiy qilgan mehnati va samarali ish-harakati zarur.

Ingliz tilidagi "Work is love made visible." (K. Gibran) epigrafidagi metaforik ifoda ingliz madaniyatidagi ishni faqat moddiy jihatdan emas, balki ma'naviy va muhabbat bilan bog'liq deb ko'rish tendensiyasiga mos keladi. "Ish — bu ko'rinadigan muhabbatdir" bu o'zbek tili va madaniyatidagi ishni mehr va sadoqat bilan bajarish qadriyatlarini ayniqsa qadimiy adabiyot va xalq og'zaki ijodida ham uchraydigan mehnatga to'g'ri munosabat shakllantirish arurligi uqtiradigan paremyalar mazmuniga mos keladi.

O'zbek madaniyatida ishni la'natlash emas, balki inson kamoloti va madaniyat o'lchovi sifatida ko'rish fikri mavjud. Ingliz tilidagi muloqotda ko'p uchraydigan "Work is not a curse; it is the prerogative of intelligence, the only means to manhood, and the measure of civilization." Ya'ni, Ish la'nat emas; u aqlning huquqi, insonlikka yetishning yagona vositasi va sivilizatsiya o'lchovidir" iborasi muallifi David O. McKay hisoblanadi. Bu epigraf aql, insonlik va sivilizatsiya tushunchalarini ish bilan bog'lab, ishni madaniy va intellektual jihatdan muhim deb baholaydi. Bu fikr o'zbek dunyoqarashida ham ishni qadrlash va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini bilan uyg'unlashadi

Shuningdek o'zbek xalq dunyoqarashida mehnat inson hayotidagi og'irlik va qiyinchiliklarni yengish vositasi sifatida qabul qilinadi. Ingliz madaniyati va paremyalari ham ish orqali jamiyat va shaxsiy muammolarga javob topish, davolanish kontseptsiyasini ilgari suradi. Masalan: "Work is the grand cure of all the maladies and miseries that ever beset mankind." (Thomas Carlin). (O'zb) Ish insoniyatni qiynab kelgan barcha kasalliklar va dardlarning kattagina davosidir.

Lingvopragmatik tadqiqotlar inglizcha paremyalarda ish haqidagi fikrlar ko'proq tushuntirish va umumlashma tarzda berilgan, abstrakt fikrlar ko'proq metafora va aforizmlar shaklida ifodalanganini ko'rsatadi. Ularning o'zbekcha tarjimalarida esa fikr aniq, ravshan va ko'proq didaktik uslubda ifoda qilingan. Bu o'zbek tilining ilmiy-o'zlashtiruvchi, tushunarli va ma'naviy jihatdan boy lisoniy pragmatikasiga mos keladi.

Har ikki til madaniyati ishni qadrlaydi, ammo o'zbekcha tarjimada ishning ma'naviy, milliy va insoniy qiyofasi yanada ko'proq ta'kidlangan. O'zbek tilidagi tarjimalar asosan ishning samarasi, axloqiy-etik va ijtimoiy ahamiyatini yoritishga urg'u beradi, shuningdek, ish va bo'sh vaqt orasidagi muvozanat haqidagi nuqta o'zbek madaniyatida yanada iroda bilan qabul qilinadi. Inglizcha matnlarda ishga universal va zamonaviy yondashuv ko'zda tutilsa, o'zbek dunyoqarashida, asosan, ish ijtimoiy mexanizm va inson shaxsiy kamolotining vositasi sifatida qaraladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ish, mehnat va vaqt konseptlarini ifodalovchi paremyalar har ikki til va madaniyatda qadrlanadi, biroq ularning lingvokultural talqini o'ziga xoslikka ega. Ingliz tilidagi paremyalarda ko'proq individualizm, samaradorlik va vaqtni boshqarish aspektlari aks etgan bo'lsa, o'zbek paremyalarida jamiyat, do'stlik va mehnatning ijtimoiy-axloqiy qirralari kuchliroq namoyon bo'ladi. Shuningdek, vaqt kontsepti o'zbek madaniyatida yanada ko'proq hayot ritmi, muvozanat va taqdir tushunchalari bilan bog'liq tarzda talqin etiladi. Shunday qilib,

paremyalarning lingvomadaniy tadqiqi orqali ish, mehnat va vaqtning madaniyatga bog'liq lingvosematik va lingvopragmatik mohiyati yoritiladi.

Mazkur tadqiqotda o'zbek va ingliz tillaridagi ish, mehnat va vaqt konseptlarini ifodalovchi paremyalarning lingvokultural hamda lingvopragmatik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, paremyalar har ikki til va madaniyatda xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy qadriyatlarini hamda milliy dunyoqarashini ixcham va obrazli shaklda ifodalovchi muhim lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Ular orqali jamiyatning mehnatga, vaqtga va inson faoliyatiga bo'lgan munosabati til vositasida mustahkamlanadi.

Tadqiqot davomida ingliz paremyalarida ish va vaqt tushunchalarining ko'proq individualizm, samaradorlik va ratsional yondashuv bilan bog'liq tarzda talqin qilinishi aniqlanib, o'zbek paremyalarida esa ushbu konseptlarning ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy va jamoaviy mazmuni ustuvor ekani kuzatildi. Xususan, o'zbek lingvomadaniy makonida

mehnat inson kamoloti, jamiyat barqarorligi va axloqiy yetuklik mezoni sifatida talqin qilinadi, vaqt esa hayot ritmi, muvozanat va taqdir tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda ifodalanadi.

Lingvopragmatik tahlil shuni ko'rsatdiki, ingliz paremyalarida fikr ko'proq umumlashtiruvchi, metaforik va aforistik shaklda berilgan bo'lsa, ularning o'zbekcha talqinlarida didaktiklik, aniq xulosa va tarbiyaviy maqsad kuchliroq namoyon bo'ladi. Bu holat har ikki tilning pragmatik yo'nalishi va madaniy kommunikatsiya uslubidagi farqlar bilan izohlanadi.

Umuman olganda, ish, mehnat va vaqt konseptlarini ifodalovchi paremyalarning qiyosiy lingvokultural tadqiqi til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur tadqiqot natijalari paremiologiya, lingvokulturologiya va qiyosiy tilshunoslik sohaslarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida boshqa konseptlarni ham madaniyatlararo qiyoslash asosida o'rganish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Apresyan, Ye. M. "Metaphor, Metonymy and Cognitive Modeling". Moscow: Languages of Russian Culture, 1995.
2. Lakoff, G., Johnson, M. "Metaphors We Live By". Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Fillmore, Ch. J. "Frames and the Semantics of Understanding". Quoted in numerous linguistic studies related to semantics and pragmatics.
4. Wierzbicka, A. "Semantic Primitives". Oxford University Press, 1996.
5. Eco, U. "The Role of the Reader". Bloomington: Indiana University Press, 1979.
6. Zuckermann, Ghil'ad. "Language Contact and Lexical Enrichment in Israeli Hebrew". Palgrave Macmillan, 2003.
7. Karimova, D. "Uzbek Proverbs as a Reflection of National Culture". Tashkent Linguistic Journal, 2019.
8. Nabiev, N. "Work and Time in Uzbek Paremiology". Central Asian Journal of Linguistics, 2021.
9. Thomas, J. "Cross-Cultural Pragmatics". Cambridge University Press, 1995.
10. Crystal, D. "The Cambridge Encyclopedia of Language". Cambridge University Press, 2010.